Излаш

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.04.2023 yildagi 143-son

Кучга кириш санаси 07.04.2023

Қўшимча ахборот

Улашиш

## OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

# OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASIDA OLIY TAʼLIM VA OLIY TAʼLIMDAN KEYINGI TAʼLIMGA QABUL QILISH VA OʻQITISH TARTIBINI BELGILASH CHORA-TADBIRLARI TOʻGʻRISIDA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish toʻgʻrisida” 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-son Farmoni ijrosini taʼminlash, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish toʻgʻrisida” 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-son Farmoni 15-bandi uchinchi xatboshisida ochiq, har tomonlama va xolis tanlov mezon va mexanizmlarini qamrab olgan Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim hamda oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitishning alohida tartibini nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mudofaa vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining (keyingi oʻrinlarda — Akademiya) “tergov faoliyati” taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavriat bosqichi talabalarini vazirlikning kuch va vositalaridan foydalangan holda, Oʻzbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik oʻquv markazida bepul harbiy tayyorgarlikdan oʻtishini taʼminlasin.

4. Akademiya surishtiruv va tergov faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlari bilan birgalikda oʻz rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari va ommaviy axborot vositalari orqali Akademiyaning “tergov faoliyati” bakalavriat taʼlim yoʻnalishiga nomzodlarni tanlash va oʻqishga qabul qilish uchun tanlov har yili 1-fevralga qadar, 2023/2024 oʻquv yili uchun, istisno tariqasida, 2023-yil 15-aprelga qadar eʼlon qilinishini taʼminlasin.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin.

6. Manfaatdor vazirlik va idoralar oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri I.Y. Abdurahmonov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,
2023-yil 6-aprel,
143-son

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-apreldagi 143-son qaroriga
1-ILOVA

## Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida

## NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (keyingi oʻrinlarda — Akademiya) bakalavriatida yuridik kadrlarni tayyorlash boʻyicha oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Akademiyada oʻqishga qabul “tergov faoliyati” bakalavriat taʼlim yoʻnalishi (keyingi oʻrinlarda — “tergov faoliyati” yoʻnalishi) hamda yurisprudensiyaning boshqa bakalavriat taʼlim

yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etiladi.

“Tergov faoliyati” yo‘nalishida o‘quv jarayoni kunduzgi ta’lim shaklida tashkil etiladi.

Yurisprudensiyaning boshqa bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘quv jarayoni ta’limning kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shakllarida tashkil etilishi mumkin.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Akademiyaning Muvofiqlashtirish-vasiylik kengashi (keyingi o‘rinlarda — Vasiylik kengashi) — Akademiya faoliyatining ustuvor masalalarida ko‘maklashuvchi jamoatchilik boshqaruvi organi. Vasiylik kengashiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (keyingi o‘rinlarda — Bosh prokuror) rahbarlik qiladi;

apellatsiya komissiyasi — yozma imtihon va test sinovlari natijalari bo‘yicha nomzodlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun tuziladigan komissiya;

vakolatli davlat organlari — qonunchilikka muvofiq surishtiruv va tergov faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlari;

Idoralararo qabul komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Qabul komissiyasi) — Akademiya “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatga o‘qishga qabul qilishni sifatli tashkil etish, shu jumladan talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish, tanlovni o‘tkazish va ularga maslahatlar berish, boshqa tashkiliy masalalarni tezkor hal etish uchun Bosh prokuror buyrug‘i bilan vakolatli davlat organlari vakillaridan 9 nafar a’zolardan iborat tarkibda tuziladigan Vasiylik kengashining vakolatli a’zosi raislik qiladigan komissiya;

nomzod — Akademiyaga o‘qishga kirish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan hamda ushbu Nizom talablari asosida tanlovlarda ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

talaba — Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilingan shaxs;

taqsimot komissiyasi — Akademiya bitiruvchilarini vakolatli davlat organlariga xizmatga taqsimlash uchun tuziladigan komissiya.

4. Akademiyada kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlagan holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

## 2-bob. Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi

### 1-§. Umumiy qoidalar

5. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilish tanlov, teng huquqlilik prinsiplari va qabul qilishning yagona qoidalari asosida quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

dastlabki tanlov;

maxsus psixologik tanlov;

yozma imtihon;

test sinovlari.

6. Qabul komissiyasining tarkibi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibi Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi.

Qabul komissiyasi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash komissiya mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

Qabul komissiyasining mas’ul kotibi Bosh prokuror tomonidan belgilanadi.

7. Qabul komissiyasi faoliyatida uning yarmidan ortiq a’zolari hamda ushbu komissiya raisi ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

8. Qabul komissiyasining raisi:

Qabul komissiyasining ishini tashkil etadi;

kichik komissiyalar tarkibini shakllantiradi;

kichik komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

9. Nomzodlar tanlovining Akademiyada o‘tkaziladigan tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli tashkil etish borasida Akademiyaga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash uchun Akademiya boshlig‘i o‘z vakolati doirasida buyruq (farmoyish) chiqaradi.

10. Akademiya “tergov faoliyati” yo‘nalishida bakalavriat dasturi bo‘yicha ta’lim olish muddati uch yilni tashkil etib, bitiruvchilarga belgilangan davlat namunasidagi diplom beriladi.

*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi 257-son “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy yetish to‘g‘risida”gi qarorining 5-bandi beshinchi xatboshisi.*

11. Akademiyaga qabul qilishda hujjat topshirgan abituriyentlarning muayyan toifalariga respublikaning boshqa oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

12. Akademiyada o‘qitish davlat grantlari va to‘lov-kontrakt asosida tashkil etilib, to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlari har yili Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi.

*LexUZ sharhi*

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida
1-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM
1-bob. Umumiy qoidalar
2-bob. Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi
1-§. Umumiy qoidalar
2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o‘tkazish
3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus psixologik tanlov
4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha yozma imtihonni o‘tkazish
5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish
6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish
3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish
4-bob. Tergov faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish
5-bob. Yakunlovchi qoidalar
1-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yo‘nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI
4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo‘llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI
2-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM
1-bob. Umumiy qoidalar
2-bob. Hujjatlarni qabul qilish
3-bob. Tanlovni tashkil etish
4-bob. Tanlovni o‘tkazish

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi 257-son “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy yetish toʻgʻrisida”gi qarorining 11-bandi beshinchi xatboshisi.*


Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish


13. “Tergov faoliyati” yoʻnalishiga umumiy oʻrta taʼlim (11-sinf negizida) yoki oʻrta maxsus, kasb-hunar professional taʼlim maʼlumotiga ega, sogʻligʻining holati boʻyicha xodim yoki harbiy xizmatchining xizmat majburiyatlarini bajarishga qodir boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolaridan oʻqishga kirish uchun hujjatlar qabul qilinadi.

## 2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

14. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidagi har yilgi qabul parametri vakolatli davlat organlarining hududlar kesimidagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vakolatli davlat organlari tomonidan hududlar kesimidagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan takliflari qabul yilining 10-yanvariga qadar Akademiyaga taqdim etiladi.

Akademiya va vakolatli davlat organlari oʻzlarining rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali Akademiyaning “tergov faoliyati” boʻyicha bakalavriatiga nomzodlarni tanlash va oʻqishga qabul qilish uchun tanlovni qabul yilining 1-fevraliga qadar eʼlon qiladi.

Nomzodlarni tanlash va oʻqishga qabul qilish tanlovlarni oʻtkazish toʻgʻrisida berilgan eʼlonda tegishli hujjatlar qabul qilinadigan manzil, oʻqishga qabul qilish shartlari hamda tanlovni oʻtkazish bilan bogʻliq boshqa maʼlumotlar aks ettiriladi.

15. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha bakalavriati qabuliga dastlabki tanlov:

harbiylashtirilgan tuzilmalar (Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Bojxona qoʻmitasi, Harbiy prokuratura);

harbiylashtirilmagan tashkilotlar (prokuratura organlari, shu jumladan Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi)dagi talablarni inobatga olgan holda alohida tartibda amalga oshiriladi.

Bunda, nomzod oʻz hujjatlarini harbiylashtirilgan yoki harbiylashtirilmagan soha boʻyicha topshirishi lozim.

16. Nomzod qabul yilining 1-fevralidan 1-martiga qadar hujjatlarni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi oʻrinlarda — Agentlik)ning maxsus elektron platformasi orqali onlayn topshirib, roʻyxatdan oʻtadi.

Nomzod ushbu bandning birinchi xatboshisida koʻrsatilgan muddatlarda:

harbiylashtirilgan yoʻnalish boʻyicha — hududiy ichki ishlar organlariga;

harbiylashtirilmagan yoʻnalish boʻyicha — hududiy prokuratura organlariga tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

17. Nomzod tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;

tugʻilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi, tugʻilganlik haqidagi guvohnoma almashtirilgan yoxud familiyasi, ismi, otasining ismi va boshqa maʼlumotlar oʻzgartirilgan boʻlsa, bu haqda FHDY organining maʼlumotnomasi;

yaqin qarindoshlari pasporti, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma, nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, qarindoshlarining oʻlimi haqidagi guvohnomalar nusxalari;

nomzod tomonidan qoʻlda va kompyuterda yozilgan tarjimai hol;

anketa (maʼlumotnoma);

harbiy xizmatga chaqiriluvchining qayd etilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi (agar mavjud boʻlsa) nusxasi;

3x4 santimetr oʻlchamdagi 6 ta fotosurat (bosh kiyimsiz) hamda 9x12 santimetr oʻlchamdagi 2 ta fotosurat (bosh kiyimsiz);

nomzodlar tomonidan hujjatlarni taqdim etishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (pasport yoki ID-karta), tugʻilganlik haqida guvohnomalar, harbiy xizmatga chaqiriluvchining qayd etilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi shaxsan koʻrsatiladi.

18. Hujjatlarni qabul qilgan hududiy ichki ishlar organi/hududiy prokuratura organi masʼul xodimi taqdim etilgan hujjatlarning aslini tekshirib oladi. Xizmat oʻtash xususiyatidan kelib chiqib, shuningdek ayrim hujjatlarga aniqlik kiritish maqsadida tegishli muassasalardan qoʻshimcha hujjat yoxud maʼlumotlar talab qilib olinishi mumkin.

19. Akademiyaga oʻqishga kirish istagini bildirgan nomzodlar uchun dastlabki tanlov hududiy ichki ishlar organi/hududiy prokuratura organi tomonidan qabul yilining 1-martidan 20-mayiga qadar oʻtkaziladi.

20. Dastlabki tanlovning maqsadi — nomzodni tavsiflovchi maʼlumotlarning ular kelgusida vakolatli davlat organlarida xizmat qilishi uchun mosligini va ularning sogʻligʻi holatini aniqlashdan iborat.

21. Quyidagilar dastlabki tanlovning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilish va o'qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish va o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o'tkazish

3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha yozma imtihonni o'tkazish

5-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha test sinovlarini o'tkazish

6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilish

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining "tergov faoliyati" yo'nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo'llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o'qishga qabul qilish va o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni o'tkazish

nomzodga tegishli hujjatlarni va uni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash;

nomzod to'g'risidagi turli ma'lumotlarni aniqlash (oilaviy ahvoli va boshqalar);

nomzodning sog'lig'i jihatidan o'qishga yaroqliligini aniqlash.

22. Dastlabki tanlov quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

harbiylashtirilmagan yo'nalishlar uchun — hujjatlarni to'plash va o'rganish (maxsus o'rganish);

harbiylashtirilgan yo'nalishlar uchun — hujjatlarni to'plash va o'rganish (maxsus o'rganish) hamda tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

23. Hujjatlarni to'plash va o'rganish natijalarini tahlil qilish nomzod to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali jamlash va tizimlashtirish usuli orqali o'tkaziladi.

24. Dastlabki tanlov bosqichida ishtirok etadigan nomzodlarning soni cheklanmaydi.

25. Hududiy ichki ishlar organlari nomzodlarni ichki ishlar organlarida maxsus tashkil etiladigan harbiy-tibbiy komissiyalar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlaydi.

26. Harbiylashtirilgan tuzilmalar uchun quyidagi maxsus parametrlar talab etiladi:

yoshi o'n yettidan kichik va yigirma beshdan katta bo'lmasligi (muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'tagan yoshi yigirma oltidan katta bo'lmagan);

bo'yi balandligi erkaklar uchun — 165 santimetrdan, ayollar uchun — 160 santimetrdan past bo'lmasligi;

harbiy-tibbiy komissiya ko'rigi natijasiga ko'ra sog'lig'ining holati bo'yicha xizmatga yaroqli deb topilganligi.

Harbiylashtirilmagan tashkilotlarga ishga qabul qilinadigan nomzodlarga ushbu banddagi maxsus talablar tatbiq etilmaydi.

27. Harbiy-tibbiy komissiya ko'rigi natijasiga ko'ra, keyinchalik harbiylashtirilgan tuzilmalarga ishga qabul qilinadigan nomzod sog'lig'ining holati bo'yicha harbiylashtirilgan vakolatli davlat organlarida xizmatga yaroqsiz deb topilgan taqdirda, bu haqda nomzodga ma'lum qilinadi va ushbu nomzodni vakolatli davlat organlariga qabul qilish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa tuziladi. Ushbu toifadagi nomzodlarning alohida ro'yxati shakllantiriladi.

28. Nomzodga tegishli hujjatlarni o'rganish va harbiy-tibbiy komissiya ko'rigi natijasiga ko'ra nomzodlar ro'yxati va yig'majildlari hududiy ichki ishlar organi/hududiy prokuratura organi tomonidan qabul yilining 25-mayiga qadar Akademiyaga taqdim etiladi.

29. Ro'yxatga harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi ilova qilinadi.

30. Dastlabki tanlovdan o'tgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar Akademiya rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

### 3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha maxsus psixologik tanlov

31. Maxsus psixologik tanlov uchun test topshiriqlari Agentlik tomonidan tuziladi va test sinovlari o'tkaziladi.

*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi 257-son "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy yetish to'g'risida"gi qarorining 5-bandi to'rtinchi xatboshisi.*

32. Maxsus psixologik tanlov har yili iyun-iyul oylarida Agentlik tomonidan quyidagi mezon asosida baholanadi:

test topshiriqlarini bajarish uchun 50 ta test savoliga 40 daqiqa (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga) vaqt beriladi. Har bir to'g'ri javob uchun 2 ball beriladi;

maxsus psixologik tanlov natijalari 0 balldan 100 ballgacha baholanadi.

33. Psixologik tanlov o'tkazish jarayoni Akademiya rasmiy veb-saytida to'g'ridan to'g'ri namoyish etib boriladi.

### 4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha yozma imtihonni o'tkazish

34. Yozma imtihon har yili iyun-iyul oylarida Agentlik tomonidan diktant shaklida o'tkaziladi.

35. Yozma imtihonni o'zbek tilida topshirayotgan nomzodlarga lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozish talab etiladi.

36. Diktant matni 160 — 170 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Nomzodlarga diktantning audiomatni bir marotaba eshittiriladi. Audiomatn to'liq eshittirilgandan keyin nomzodlar diktantni yozishga tayyorlanadi.

Audiomatndagi har bir gap 2 marotaba eshittiriladi.

Diktant yozish yakunlangandan so'ng audiomatn yana bir marotaba to'liq eshittiriladi.

37. Yozma imtihon quyidagi mezon asosida baholanadi:

maksimal ball 100 ballni tashkil etadi;

orfografik (imloviy) yoki punktuatsion (tinish belgi) xatolikka yo'l qo'yilmagan diktant 100 ball bilan baholanadi;

har bir orfografik yoki punktuatsion xatolik uchun 4 balldan ayirib tashlanadi.

38. Quyidagi holatlarda diktantdagi xatoliklar 1 ta xato deb hisoblanadi:

aynan bir xil soʻzdagi orfografik xatoliklar takrorlansa;

tinish belgisini qoʻllash bilan bogʻliq xatolik aynan takrorlansa.

39. Nomzod javoblar varaqasini diktant yozilmagan holda topshirsa, “0” ball bilan baholanadi.

40. Yozma imtihon oʻtkazish jarayoni Akademiya rasmiy veb-saytida toʻgʻridan toʻgʻri namoyish etib boriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

### 5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

41. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlari, qoida tariqasida, har yili 1 — 10-avgust kunlari oʻtkaziladi.

42. Qabul komissiyasi qaroriga asosan test oʻtkazish jarayoni Akademiya rasmiy veb-saytida toʻgʻridan toʻgʻri namoyish etib boriladi.

43. Nomzodlarni oʻqishga qabul qilish oʻtkazilgan maxsus psixologik tanlov, yozma imtihon va test sinovlari natijalari yigʻindisi asosida Akademiya tomonidan amalga oshiriladi.

44. Nomzod test sinovlarini Akademiyada taʼlim olish tilida topshiradi.

45. Test sinovlari oʻtkaziladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni va baholash mezonlari test sinovlari boshlanishidan kamida 6 oy oldin Bosh prokuraturaning taklifiga binoan Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Bunda, nomzodlarga Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishiga oʻqishga kirish uchun test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va baholash mezonlari mos boʻlgan davlat oliy taʼlim muassasalarining beshtagacha taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha tanlovda ishtirok etish imkoniyati beriladi.

46. Nomzod oʻqigan chet tilidan qatʼi nazar, xohlagan chet tilidan test sinovlarini topshirishi mumkin.

Akademiyaga hujjat topshirgan va Agentlik tomonidan berilgan chet tilini bilish darajasi toʻgʻrisidagi sertifikat (keyingi oʻrinlarda — milliy sertifikat) yoki xalqaro sertifikatning quyidagi darajalariga ega boʻlgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi:

ingliz tili uchun — milliy sertifikat yoki International English Language Testing System (IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English (FCE, CAE) va Linguaskill xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

nemis tili uchun — milliy sertifikat yoki Goethe-Zertifikat, Deutsches Sprachdiplom (DSD II), TestDaF (TDN3), ECL, xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

fransuz tili uchun — milliy sertifikat yoki Diplome d’Etudes en Langue Française (DELF, DALF), Test de Connaissance du Français (TCF) xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

yapon tili uchun — milliy sertifikat yoki Japanese Language Proficiency Test (JLPT № 2) xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

boshqa tillar (ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uygʻur, italyan, pushtu) uchun — milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajasi B2 va undan yuqori.

47. Test sinovlari Vazirlar Mahkamasining “Oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish, talabalar oʻqishini koʻchirish, qayta tiklash va oʻqishdan chetlashtirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori talablari asosida amalga oshiriladi.

48. Test sinovlari tashkil etilayotgan oʻquv yilidan avvalgi yillarda taʼlim muassasalarini tugatgan nomzodlardan (toʻliq davlat taʼminotidagi shaxslar, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida roʻyxatga olingan shaxslar va ularning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar bundan mustasno) test sinovlarida ishtirok etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 60 foizi miqdorida toʻlov undiriladi.

49. Test sinoviga belgilangan vaqtda kelmagan nomzodlar uchun qoʻshimcha test sinovlari oʻtkazilmaydi.

50. Yozma imtihon va test sinovlari natijasi boʻyicha berilgan apellatsiya shikoyatlari Agentlikning apellatsiya komissiyasi tomonidan koʻrib chiqiladi.

Apellatsiya arizalari imtihon natijalari eʼlon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha boʻlgan muddatda koʻrib chiqiladi.

51. Nomzodlar Agentlik tomonidan taqdim etilgan maxsus psixologik tanlov, yozma imtihon va test sinovlari yigʻindisi natijalari asosida Akademiya boshligʻining buyrugʻi bilan oʻqishga qabul qilinadi va ularga stipendiya tayinlanadi.

52. Oʻqishga qabul qilingan nomzodlar haqidagi maʼlumotlar ikki kun muddatdan kechikmasdan Agentlikka taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilish va o'qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish va o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o'tkazish

3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha yozma imtihonni o'tkazish

5-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha test sinovlarini o'tkazish

6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilish

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining "tergov faoliyati" yo'nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo'llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o'qishga qabul qilish va o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni o'tkazish

### 6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilish

53. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo'nalishlari bo'yicha qabul Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori talablari asosida amalga oshiriladi.

54. Yurisprudensiyaning boshqa yo'nalishlarining faoliyat turlari Bosh prokuror tomonidan belgilanadi.

## 3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish

55. Akademiya bakalavriatida ta'lim Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan belgilangan kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi.

56. "Tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilingan fuqaro bilan o'qish (xizmat o'tash) va o'qishni tamomlaganidan keyin uch kalendar yili mobaynida taqsimot bo'yicha yuborilganda vakolatli davlat organlarida yoki boshqa davlat organlarida majburiy uzluksiz xizmat o'tash to'g'risida shartnoma imzolanadi.

57. Akademiyada o'qitish tili belgilangan qabul parametrlari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

58. Bakalavriatda o'qitishni tashkil etish jarayoni bakalavriat fakulteti tomonidan Akademiyaning kafedra, markaz va bo'limlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

59. Bakalavriatda Akademiya xodimlari, professor-o'qituvchilar hamda talabalarning huquq va majburiyatlari, o'quv metodik, ilmiy-pedagogik faoliyati, amaliyot o'tashi va o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq boshqa masalalar Akademiya tomonidan belgilanadi.

60. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha 1-kurs talabalarining harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etilib, ushbu mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida o'tkaziladi.

61. Akademiyaning "tergov faoliyati" yo'nalishi bo'yicha bakalavriatda birinchi kurs va (yoki) ikkinchi kurs uchun belgilangan o'quv jarayoni yakunlanganidan so'ng talabalar (muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'taganlar bundan mustasno) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda, shartnoma asosida yozgi ta'til davrida Toshkent viloyati hududida joylashgan harbiy qismda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'taydi.

62. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari doirasida ikki haftagacha bo'lgan muddatda o'quv-dala yig'inlari Bosh prokuratura va Mudofaa vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan qo'shma chora-tadbirlar rejasiga muvofiq tashkil etiladi.

63. Keyinchalik nomzod talaba sifatida Akademiyaga harbiylashtirilmagan yo'nalish bo'yicha o'qishga qabul qilinganidan so'ng, agar harbiylar uchun belgilangan talablarga javob bergan taqdirda, unga xohishiga ko'ra harbiylashtirilgan yo'nalishda ishlash imkoniyati yaratiladi.

64. Talaba Akademiya talabalar safidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

o'z xohishiga binoan;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya xulosasi asosida);

o'quv intizomini va Akademiya ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun Akademiya kengashi qarori asosida;

akademik qarzdorligi uchun;

o'quv yili davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

sudning hukmi asosida ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda tinglovchilar safidan chetlashtirilganlar qayta tiklanmaydi);

vafot etganligi sababli yoki sud qaroriga asosan bedarak yo'qolgan yoxud vafot etgan deb e'lon qilinganda.

65. Intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan talaba bundan norozi bo'lsa, Bosh prokuratura yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

66. Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'majildida saqlanadi.

67. Talaba Akademiyadan chetlashtirilganda unga akademik ma'lumotnoma beriladi.

68. Talaba, quyidagi asoslarga ko'ra o'qishdan chetlashtirilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida o'qishini qayta tiklash huquqiga ega:

o'z xohishiga binoan;

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya maʼlumotnomasi asosida);

akademik qarzdorligi tufayli;

oʻqish uchun belgilangan toʻlov oʻz vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (toʻlov-kontrakt boʻyicha tahsil olayotganlar uchun).

69. Davlat granti yoki toʻlov-kontrakt asosida bakalavriatda tahsil olayotgan talabalar talabalar safidan chetlashtirilgan taqdirda ular keyingi oʻquv yilida toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga tiklanadi.

70. Oʻqishga tiklangan tinglovchilar modullar boʻyicha olinmay qolgan kreditlarga mos ravishda toʻlov-kontrakt summasini toʻlaydi.

71. Fanlar boʻyicha qayta taʼlim olish uchun toʻlov qiymati Akademiya tomonidan butun oʻquv yilining kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qayta taʼlim olish uchun toʻlov mexanizmi Akademiya tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida belgilanadi. Bir kredit qiymati oʻquv yili davomidagi taʼlim olish uchun toʻlanadigan umumiy summani rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi.

72. Talaba tomonidan chetlashtirilgunga qadar oʻzlashtirgan sinov birliklari miqdori Akademiya tomonidan toʻliq hajmda hisobga olinadi. Akademik qarzdorligi tufayli tinglovchilar safidan chetlashtirilgan talabalar keyingi oʻquv yilida tegishli oʻquv semestridan boshlab faqat oʻzlashtira olmagan modullarni takroran oʻqishi mumkin.

73. Shartnoma asosida talabani oʻqishga qayta tiklash soni chegaralanmaydi.

## 4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

74. Davlat granti asosida bitiruvchilar (keyingi oʻrinlarda — bitiruvchilar) vakolatli davlat organlarining hududlar kesimidagi ehtiyojlari boʻyicha berilgan takliflari asosida ushbu organlarga ishga qabul qilinishi taʼminlanadi.

75. Bitiruvchilarni vakolatli davlat organlariga xizmatga taqsimlash uchun Akademiyada taqsimot komissiyasi tuziladi.

Taqsimot komissiyasiga Vasiylik kengashi raisi raislik qiladi hamda uning tarkibiga vakolatli davlat organlari vakillari bilan bir qatorda boshqa tashkilotlarning vakillari ham, ularning rahbarlari bilan kelishilgan holda kiritilishi mumkin.

76. Bitiruvchilarni ishlab berish uchun taqsimlash har yili, qoida tariqasida, bitiruvchi oʻqishni tamomlagandan soʻng, bir oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.

77. Taqsimot komissiyasi tomonidan bitiruvchining reyting natijalari va talabani oʻrganish jarayonida yigʻilgan shaxsiy hujjatlar yigʻmajildini, shuningdek harbiy-tibbiy komissiya xulosasini inobatga olib, vakolatli davlat organlarida xizmatni oʻtash uchun bitiruvchiga ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan shakldagi yoʻllanma beriladi.

78. Taqsimot komissiyasining bitiruvchini xizmatga taqsimlash haqidagi qarori qabul qilinganidan soʻng Akademiya tomonidan har bir bitiruvchiga uch ish kunidan kechiktirmagan holda oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi diplomdan koʻchirma beriladi.

79. Taqsimot komissiyasi qarori asosida vakolatli davlat organlariga yoʻllanma berilgan bitiruvchilar bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shartnoma (kontrakt) tuziladi. Bitiruvchining xizmat vazifalarini bajarishga kirishganligi haqida ushbu Nizomga 3-ilovada keltirilgan shakldagi maʼlumotnoma (keyingi oʻrinlarda — maʼlumotnoma) ish beruvchi tashkilot tomonidan Akademiyaga taqdim etiladi.

Akademiya maʼlumotnoma asosida ushbu Nizomga 4-ilovada keltirilgan shakldagi jurnalga muvofiq har bir bitiruvchining hisobini yuritadi.

80. Bitiruvchi 3-kurs davomida qayta oʻtkaziladigan maxsus oʻrganishdan oʻtmaganda yoki vakolatli davlat organlarining harbiy-tibbiy komissiyasi xulosasiga koʻra xizmatga nomuvofiq deb topilganda bitiruvchilarga mustaqil ishga joylashish imkoniyati berilganligi toʻgʻrisida maʼlumotnoma va oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi diplomning asli beriladi.

Bitiruvchi mazkur maxsus oʻrganishdan oʻtmaganda yoki harbiy-tibbiy komissiyasi xulosasiga koʻra xizmatga nomuvofiq deb topilganda, u belgilangan kompensatsiya toʻlovidan ozod etiladi.

81. Uch yillik ishlab berish muddati davomida bitiruvchi xizmatdan boʻshatilganda, vakolatli davlat organlari hududiy davlat organlari rahbari tomonidan tegishli maʼlumot besh ish kuni mobaynida Akademiyaga taqdim etiladi.

Bunda, kompensatsiya miqdori bitiruvchi tomonidan ishlab berilgan vaqtga proporsional tarzda hisoblab chiqiladi.

Akademiya bitiruvchi tomonidan kompensatsiya miqdorini toʻlashni taʼminlash, shuningdek zaruratga koʻra, sud tartibida undirish chorasini koʻradi.

Bitiruvchidan undirilgan kompensatsiya mablagʻlari toʻliq hajmda Akademiya hisobiga toʻlanadi.

82. Mazkur Nizomga muvofiq bitiruvchi xizmat burchini bajarish vaqtida mehnat layoqatini yoʻqotganligi sababli (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud boʻlganda) ishlab berish imkoniyatiga ega boʻlmaganda Vasiylik kengashi qarori asosida kompensatsiya toʻlovidan ozod etiladi.

83. Bitiruvchining uch yillik ishlab berish muddati tugagandan soʻng xizmatni davom ettirish haqidagi masala qonunchilik hujjatlariga muvofiq ish beruvchi va xodim yoki harbiy xizmatchi oʻrtasida oʻzaro kelishuvga asosan hal etiladi.

## 5-bob. Yakunlovchi qoidalar

84. Davlat granti asosida oʻqishni tamomlagan Akademiya bakalavriatining bitiruvchilariga vakolatli davlat organlarida uch yil ishlab berish (xizmatni oʻtash) majburiyati yuklanadi.

Akademiyaga oʻqishga kirishdan oldin nomzod Akademiyaga davlat granti asosida oʻqishga qabul qilingan va bakalavriatni bitirgan taqdirda, surishtiruv va tergov faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlarida ishlab berish (xizmatni oʻtash) majburiyatini bajarishdan bosh tortganida yoki uch yillik muddatdan ilgari mehnat qonunchiligiga asosan yoxud xizmatni lozim darajada bajarmaganligi yoki sodir etilgan huquqbuzarlik tufayli mehnat qilish (xizmatni oʻtash) mumkin boʻlmay xizmatdan (ishdan) boʻshatilganida, oʻqishni bitirgan vaqtidagi Akademiyada amalda boʻlgan toʻlov-shartnoma summasining yigirma besh baravari miqdorida Akademiyaga kompensatsiya toʻlaganidan soʻng diplom berilishi toʻgʻrisida ogohlantiriladi.

Ogohlantirish xati orqali zimmasiga yuklanadigan barcha majburiyatlarni oʻz vaqtida va toʻliq bajarilishiga kafolat berishi toʻgʻrisida majburiyat shartlari hamda uning bajarilmasligi yuzasidan moddiy javobgarlik boʻyicha oʻqishga kirish uchun hujjat topshirish jarayonida ushbu Nizomga 5-ilovada keltirilgan shakldagi ogohlantirish xati orqali tanishtiriladi.

Bitiruvchi tomonidan toʻlov amalga oshirilganidan soʻng unga diplom berilishi taʼminlanadi.

Ogohlantirish xatini imzolashni rad etgan fuqarolar Akademiyaga qabul qilinmaydi.

85. Akademiyada taʼlim olayotgan talabalar oʻqishini boshqa oliy taʼlim muassasalariga, shuningdek boshqa oliy taʼlim muassasalari talabalari oʻqishini Akademiyaga koʻchirish mumkin emas.

52. Auditoriya kuzatuvchilari nomzodlarga daftar muqovasida oʻz familiyasi, ismi, otasining ismini koʻrsatishi, daftar varaqlarini buklamaslik, farq qiluvchi belgilar qoʻymaslik, yozuvlar tagiga chizmaslik, javoblarni belgilashda koʻk havorang sharikli ruchkadan boshqa ruchkadan foydalanmaslik haqida tushuntirish berishi, shuningdek ushbu talablarni buzish yozma imtihon oʻtkazish tartibini buzish deb hisoblanishi haqida ularni ogohlantirishi lozim.

53. Yozma imtihon (esse)ni yozishga, qoida tariqasida, toʻrt soat vaqt beriladi.

54. Yozma imtihon (esse) yakunlangach, auditoriya kuzatuvchilari har bir daftarning muqovasi va birinchi varagʻiga maxsus shifrlar qoʻyib, daftarlar muqovasini yirtib oladi va daftarlar solingan qutilarni, shuningdek muhrlanib, imzolangan konvertga solingan daftarlar muqovalarini mas’ul kotibga topshiradi.

55. Yozma ishlarni tekshirish va baholash maqsadida imtihon yakunlangan kunning oʻzida Akademiya boshligʻining buyrugʻi bilan maxsus komissiya tashkil etiladi.

56. Maxsus komissiya a’zolari tomonidan yozma ishlarni tekshirish va baholash uchun ajratilgan xonaga uyali telefonlar, boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalarini olib kirish taqiqlanadi.

Yozma ishlarni tekshirish jarayonini onlayn kuzatib borishni ta’minlash maqsadida mazkur jarayon Akademiya rasmiy veb-saytida toʻgʻridan toʻgʻri namoyish etib boriladi.

57. Maxsus komissiya raisi daftarlar solingan qutilarni mas’ul kotibdan qabul qilib olib, maxsus komissiya a’zolari ishtirokida ochadi va daftarlarning muqovalari ajratilganligi va shifrlanganligini tekshiradi.

Muqovasi ajratilmagan, shifrlanmagan yoki nomzodning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi boshqa belgilar mavjud boʻlgan daftarlar aniqlangan taqdirda, dalolatnoma tuziladi. Bunday ishlar tekshirilmaydi.

58. Yozma ish natijalari tegishli shifrlar bilan alohida qaydnomaga kiritiladi.

Daftarlar va yozma ish natijalari qaydnomasi qutilarga solinadi hamda maxsus komissiya raisi tomonidan mas’ul kotibga topshiriladi.

Oʻqishga qabul qilingan nomzodlarning yozma ishlari ularning oʻqish davrlari mobaynida, qabul qilinmagan nomzodlarning yozma ishlari 6 oy davomida saqlanadi, soʻng belgilangan tartibda yoʻq qilinadi.

59. Yozma ish natijalari Idoralararo qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma shaklidagi qaror bilan rasmiylashtiriladi.

60. Chet tili boʻyicha imtihon Agentlik tomonidan ushbu Nizom qoidalarini inobatga olgan holda, Akademiya bilan kelishilgan tartibda oʻtkaziladi va baholanadi.

61. Milliy sertifikat yoki xalqaro sertifikatlarning quyidagi darajalariga ega boʻlgan nomzodlarga chet tilidan imtihonlarsiz maksimal ball beriladi:

ingliz tili uchun — B2 (“Multilevel” test sinovida kamida 51 ball) va undan yuqori darajadagi milliy sertifikat yoki International English Language Testing System (IELTS 5.5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge Assessment English FCE xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

nemis tili uchun — B2 va undan yuqori darajadagi milliy sertifikat yoki Goethe-Zertifikat, Deutsches Sprachdiplom (DSD), Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF) xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

fransuz tili uchun — B2 va undan yuqori darajadagi milliy sertifikat yoki Diplôme d'Etudes en Langue Française (DELF), Test de Connaissance du Français (TCF) xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

yapon tili uchun — B2 va undan yuqori darajadagi milliy sertifikat yoki Japanese Language Proficiency Test (JLPT № 2) xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

boshqa tillar (ispan, turk, arab, hind, xitoy, koreys, italyan) uchun — milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari boʻyicha tilni bilish darajasi B2 va undan yuqori.

## 5-bob. Tanlov natijalari boʻyicha shikoyatlarni koʻrib chiqish

62. Tanlov natijalaridan norozi boʻlgan nomzodlar natijalar Akademiya rasmiy veb-saytida e’lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni davomida Apellatsiya komissiyasiga apellatsiya berish huquqiga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

63. Tanlov natijalari boʻyicha nomzodlarning shikoyatlarini koʻrib chiqish uchun qabul komissiyalari faoliyatida ishtirok etmagan shaxslar orasidan kamida 5 nafar aʼzodan iborat Bosh prokuror buyrugʻi bilan apellatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellatsiya komissiyasi taqdim etilgan apellatsiyani u kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida koʻrib chiqadi. Nomzod apellatsiyani koʻrib chiqish jarayonida ishtirok etish huquqiga ega.

Apellatsiya koʻrib chiqiladigan kun haqida nomzodga xabar beriladi.

64. Apellatsiya komissiyasi tomonidan apellatsiyani koʻrib chiqishda tanlovning toʻgʻri oʻtkazilganligi, yozma imtihon javoblarining xolis tekshirilganligi va toʻgʻri baholanganligiga baho beriladi hamda uning natijasi boʻyicha apellatsiya komissiyasi aʼzolarining oddiy koʻpchilik ovozi bilan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

nomzodning shikoyatini qanoatlantirish toʻgʻrisida;

tanlov natijalarini oʻzgarishsiz qoldirish va nomzodning shikoyatini qanoatlantirishni rad qilish toʻgʻrisida.

Apellatsiyani koʻrib chiqish jarayonida ishtirok etmagan nomzodga apellatsiyani koʻrib chiqish natijasida qabul qilingan qaror toʻgʻrisida qaror qabul qilingan kuni axborot-kommunikatsiya vositalari orqali xabar beriladi.

Apellatsiya komissiyasi qarori komissiya raisi, aʼzolari va kotibi tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

65. Zarur hollarda, apellatsiyani koʻrib chiqish jarayoniga maxsus komissiya aʼzolari, auditoriya kuzatuvchilari va boshqa shaxslar jalb qilinishi mumkin.

66. Nomzodning shikoyati qanoatlantirilgan taqdirda, apellatsiya komissiyasi nomzodning imtihon ishiga uzil-kesil ball qoʻyadi.

Apellatsiya komissiyasi qarori ustidan belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

## 6-bob. Magistraturaga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish

67. Qabul komissiyasi tomonidan nomzodlarning tanlovda olgan ballari jamlanib, umumiy qaydnomada har bir mutaxassislik boʻyicha tashqi va ichki nomzodlarning alohida roʻyxati shakllantiriladi.

Roʻyxatda nomzodlar har bir mutaxassislik boʻyicha toʻplangan eng yuqori balldan boshlab kamayib borish tartibida hamda davlat granti va toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga qabul qilinganlar ketma-ketligida joylashtiriladi.

Bunda, taʼlimning kunduzgi shakli boʻyicha bir oʻquv yilida qabul parametrlari doirasida ichki nomzodlardan:

bir hududdan, yaʼni Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokuraturalari va unga tenglashtirilgan prokuraturalar, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosidan nomzodning toʻplagan bali ketma-ketligiga koʻra koʻpi bilan 2 nafardan;

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi markaziy mahkamasining tarkibiy boʻlinmalaridan 1 nafardan, Akademiyadan koʻpi bilan 2 nafar nomzod oʻqishga qabul qilinishi mumkin.

68. Qabul parametrlari va tanlov natijalaridan kelib chiqib, Akademiya qabul komissiyasi tomonidan minimal oʻtish ballari belgilanadi.

69. Tanlov natijalariga koʻra, qabul parametrlari boʻyicha belgilangan roʻyxatda oxirgi oʻrinda turuvchi nomzodning toʻplagan jami bali bilan undan keyingi oʻrinda turuvchi nomzodlarning toʻplagan ballari bir xil boʻlsa, ularning barchasi oʻqishga qabul qilinadi.

70. “Tergov faoliyati” mutaxassisligidan boshqa mutaxassisliklar boʻyicha tasdiqlangan qabul kvotalari toʻlmay qolgan taqdirda, boshqa mutaxassislikka oʻqishga kirish uchun hujjat topshirib, belgilangan minimal oʻtish balidan kam ball toʻplagan nomzodlar ballar ketma-ketligi boʻyicha Qabul komissiyasining qarori asosida toʻlmay qolgan mutaxassislik kvotasi doirasida oʻqishga tavsiya etiladi.

71. Umumiy qaydnoma asosida Idoralararo qabul komissiyasi tomonidan “tergov faoliyati” mutaxassisligi, boshqa mutaxassisliklar boʻyicha Akademiya qabul komissiyasi tomonidan nomzodlarni magistraturaga oʻqishga qabul qilishga tavsiya etish toʻgʻrisida bayonnomalar rasmiylashtirilib, tasdiqlanadi.

72. Qabul komissiyalari bayonnomalariga asosan Akademiya boshligʻining nomzodlarni davlat granti asosida magistratura tinglovchilari safiga qabul qilish hamda toʻlov-kontrakt asosida nomzodlarni darsga qoʻyish haqidagi buyrugʻi chiqariladi hamda bu haqdagi maʼlumot Akademiya rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga qabul qilish tavsiya etilgan nomzodlar shartnomada belgilangan toʻlov summasining tegishli qismini belgilangan muddatda toʻlagan taqdirda Akademiya boshligʻining magistratura tinglovchilari safiga qabul qilish haqida buyrugʻi chiqariladi.

73. Toʻlov-kontrakt asosida darsga qoʻyilgan nomzodlar shartnomada belgilangan muddatda toʻlov summasini toʻliq amalga oshirishlari lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining "tergov faoliyati" yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

Toʻlov-kontrakt boʻyicha shartnoma shartlarini belgilangan muddatda bajarmagan nomzodlar oʻqishdan chetlashtiriladi va bu haqda Akademiya boshligʻining buyrugʻi chiqariladi.

Oʻqishdan chetlashtirilgan nomzodning oʻrniga Akademiya qabul komissiyaning qaroriga asosan ballar ketma-ketligi boʻyicha roʻyxatdagi keyingi nomzod toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga tavsiya etiladi.

74. Akademiya magistraturasining kunduzgi yoki kechki shakliga oʻqishga qabul qilingan tinglovchilar arizalariga koʻra oʻqishni sirtqi yoki masofaviy shakliga oʻtkazishi mumkin.

Sirtqi yoki masofaviy shakldagi magistraturaga oʻqishga qabul qilingan tinglovchilar oʻqish davri davomida taʼlimni kunduzgi yoki kechki shakliga oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

75. Magistraturaga oʻqishga kirish uchun nomzodlar tomonidan topshirilgan hujjatlarning elektron nusxalari nomzodlar oʻqishni yakunlagunga qadar dasturiy taʼminotda saqlanadi.

76. Magistraturada oʻqitishni tashkil etish jarayoni Magistratura fakulteti tomonidan Akademiyaning kafedra, markaz va boʻlimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

77. Magistraturada oʻqitish tinglovchilarni prokuratura organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari, shuningdek vakolatli davlat organlarining tergov faoliyatiga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga tayyorlash maqsadida, ularni zarur oʻquv-metodik va moddiy-texnik baza bilan taʼminlagan holda tashkil etiladi.

78. Magistraturada akademik kredit tizimining joriy etilishi, Akademiya xodimlari, professor-oʻqituvchilar hamda tinglovchilarning huquq va majburiyatlari, oʻquv-metodik, ilmiy-pedagogik faoliyati, amaliyot oʻtashi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashi va oʻqitishni tashkil etish bilan bogʻliq boshqa masalalar Akademiya tomonidan belgilanadi.

## 7-bob. Tinglovchini oʻqishdan chetlashtirish va qayta tiklash

79. Tinglovchi Akademiya magistraturasi tinglovchilari safidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

oʻz xohishiga binoan;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya maʼlumotnomasi asosida);

oʻquv intizomini va Akademiya magistraturasida ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun Akademiya kengashi qarori asosida;

akademik qarzdorligi tufayli Akademiya kengashi qarori asosida;

oʻquv yili davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

oʻqish uchun belgilangan toʻlov oʻz vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (toʻlov-kontrakt boʻyicha tahsil olayotganlar uchun);

tinglovchi sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

sud qaroriga koʻra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda tinglovchilar safidan chetlashtirilganlar qayta tiklanmaydi);

vafot etganligi sababli yoki sud qaroriga asosan bedarak yoʻqolgan yoxud vafot etgan deb eʼlon qilinganda.

80. Intizomiy jazoga tortilgan tinglovchi oʻziga qoʻllanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan Bosh prokurorga shikoyat qilishi mumkin.

81. Tinglovchiga nisbatan qoʻllanilgan intizomiy jazo yuzasidan maʼlumot uning shaxsiy yigʻmajildida saqlanadi.

82. Magistraturaning "tergov faoliyati" mutaxassisligi boʻyicha kunduzgi shaklda oʻqishga qabul qilingan vakolatli davlat organlari xodimlari, shuningdek, boshqa mutaxassisliklar boʻyicha magistraturaning kunduzgi shakliga oʻqishga qabul qilingan prokuratura organlari xodimlari tinglovchilar safidan chetlashtirilganda, unga oʻqishdan chetlashtirilguniga qadar toʻlanib kelingan oylik ish haqini qaytarish masalasi ish beruvchi tomonidan koʻrib chiqiladi.

83. Magistraturaning "tergov faoliyati" mutaxassisligi boʻyicha kunduzgi shaklda oʻqishga qabul qilingan vakolatli davlat organlari xodimlari, shuningdek, boshqa mutaxassisliklar boʻyicha magistraturaning kunduzgi shakliga oʻqishga qabul qilingan prokuratura organlari xodimlari oʻqish davrida oʻz xohishiga koʻra xizmatdan boʻshagan taqdirda, ular toʻliq oʻquv yili uchun toʻlov-kontrakt miqdorini toʻlashi lozim boʻladi.

84. Tinglovchi Akademiyadan chetlashtirilganda unga akademik maʼlumotnoma beriladi.

85. Tinglovchi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida oʻqishini qayta tiklash va koʻchirish huquqiga ega.

86. Davlat granti yoki toʻlov-kontrakt asosida magistraturada tahsil olayotgan tinglovchilar tinglovchilar safidan chetlashtirilgan taqdirda ular keyingi oʻquv yilida toʻlov-kontrakt asosida oʻqishga tiklanadi.

Oʻqishga tiklangan tinglovchilar modullar boʻyicha olinmay qolgan kreditlarga mos ravishda toʻlov-kontrakt summasini toʻlaydi.

87. Fanlar boʻyicha qayta taʼlim olish uchun toʻlov qiymati Akademiya tomonidan butun oʻquv yilining kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qayta taʼlim olish uchun toʻlov mexanizmi Akademiya tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida belgilanadi. Bir kredit qiymati oʻquv yili davomidagi taʼlim olish uchun toʻlanadigan umumiy summani rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining "tergov faoliyati" yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

88. Tinglovchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar oʻzlashtirgan sinov birliklari miqdori Akademiya tomonidan toʻliq hajmda hisobga olinadi. Akademik qarzdorligi tufayli tinglovchilar safidan chetlashtirilgan tinglovchilar keyingi oʻquv yilida tegishli oʻquv semestridan boshlab faqat oʻzlashtira olmagan modullarni takroran oʻqishi mumkin.

89. Shartnoma asosida bir tinglovchi oʻqishni qayta tiklash soni chegaralanmaydi.

## 8-bob. Yakunlovchi qoidalar

90. Mazkur Nizomda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bogʻliq xarajatlar Akademiya hamda vakolatli organlarning budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlari hisobidan qoplanadi.

91. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar boʻladilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida nizomga
ILOVA

## Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga qabul qilishni tashkil etish

SXEMASI

| Bosqichlar | Mas'ullar | Oʻtkaziladigan tadbirlar | Bajarish muddatlari |
|---|---|---|---|
| 1-bosqich | Huquqni muhofaza qilish akademiyasi<br>(Akademiya) | Oʻqishga qabul qilish muddatlari, mutaxassislik nomlari va qabul parametrlari toʻgʻrisida Akademiyaning rasmiy veb-sayti hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon berish. | Har yili 1-maydan boshlab |
| 2-bosqich | Nomzodlar,<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (Agentlik)<br>Qoraqalpogʻiston Respublikasi,<br>viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari,<br>prokuratura organlari attestatsiya komissiyalari | 1. Nomzodlar tomonidan Agentlikning maxsus platformasi orqali oʻqishga kirish uchun zarur hujjatlarni topshirish.<br>Bunda, hujjatlar qabul qilinganligi toʻgʻrisida nomzodlarga maxsus platforma orqali darhol xabarnoma yuboriladi.<br>2. Attestatsiya komissiyalarida ichki nomzodlar bilan suhbat oʻtkazish, suhbat natijasiga koʻra magistraturaga tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilgan ichki nomzodlarning roʻyxatini shakllantirish. | 10-may — 10-iyun<br>("tergov faoliyati" mutaxassisligi boʻyicha)<br>10-iyun — 31-iyul<br>(boshqa mutaxassisliklar boʻyicha)<br>Oʻqishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish muddati tugaguniga qadar |
| 3-bosqich | Agentlik | "Tergov faoliyati" mutaxassisligi boʻyicha oʻqishga kirishga nomzodlar uchun psixologik tanlov (te�t shaklida) oʻtkazish. | Har yili iyul oyida<br>(bir hafta ichida) |
| 4-bosqich | Akademiya,<br>Agentlik | "Tergov faoliyati" mutaxassisligi boʻyicha nomzodlar uchun yozma imtihon (esse shaklida) (Akademiya tomonidan) va test sinovi (Agentlik tomonidan) oʻtkazish.<br>Boshqa mutaxassisliklar boʻyicha tashqi nomzodlarning bakalavriat diplom balli oʻrtacha koʻrsatkichi hamda xorijiy tilni bilish darajasi boʻyicha tegishli milliy yoki xalqaro sertifikat uchun berilgan ballni hisoblash. Bunda, boshqa mutaxassisliklar boʻyicha ichki nomzodlar uchun tanlov tartibi Bosh prokuror tomonidan belgilanadi. | Har yili avgust oyida<br>(bir hafta ichida) |

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o‘tkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha yozma imtihonni o‘tkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yo‘nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo‘llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni o‘tkazish

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5-bosqich | Akademiya qabul komissiyalari | Tanlov natijalarini Akademiya rasmiy veb-saytida e’lon qilish. | Tanlov yakunlangandan so‘ng darhol |
| 6-bosqich | Nomzodlar<br>Apellatsiya komissiyasi | 1. Tanlov natijalari bo‘yicha shikoyat qilish.<br>2. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish. | Tanlov natijalari e’lon qilingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida<br>2 ish kuni ichida |
| 7-bosqich | Akademiya | Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarni magistraturaga o‘qishga qabul qilishga tavsiya etish. | Tanlov natijalari e’lon qilingandan e’tiboran 10 kun ichida |
| 8-bosqich | Akademiya boshlig‘i | 1. Nomzodlarni davlat grantlari asosida magistraturaga qabul qilish va to‘lov-kontrakt asosida nomzodlarni darsga qo‘yish haqida buyruq chiqarish.<br>2. Nomzodlarni to‘lov-kontrakt asosida magistraturaga qabul qilish haqida buyruq chiqarish. | Qabul komissiyasi o‘z ishini yakunlagandan so‘ng 3 kun ichida<br>To‘lov-kontrakt summasining tegishli qismi to‘langandan so‘ng 3 kun ichida |

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-apreldagi 143-son qaroriga
3-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (keyingi o‘rinlarda — Akademiya) oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul qilishni tashkil etish va o‘qitish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

doktorant — Akademiyaga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

doktorantura — fan doktori (Doctor of Science) (keyingi o‘rinlarda — fan doktori (DSc)) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

izlanuvchi — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) (keyingi o‘rinlarda — falsafa doktori (PhD)) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs;

mustaqil izlanuvchilik — falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori ((DSc) ilmiy darajalariga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli;

mustaqil izlanuvchi — Akademiyaga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim — falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ta’lim turi;

oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti — Akademiyada tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta’limdan keyingi ta’limni amalga oshirish tizimi;

oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda — Yagona elektron tizim) — oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga qabul qilish va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejalari bajarilishi yuzasidan hisobotlarni shakllantirish bo‘yicha hujjatlarning elektron almashinuvini tashkil etishga mo‘ljallangan axborot tizimi;

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o‘tkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha yozma imtihonni o‘tkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yo‘nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo‘llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni o‘tkazish

tayanch doktorantura — falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli.

3. Akademiyada oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

tayanch doktorantura;

doktorantura;

mustaqil izlanuvchilik.

4. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti fan va texnikaning muhim tarmoqlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlarida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish maqsadida ochiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

bepul tayanch doktorantura va doktorantura shaklida o‘qitish;

bepul va to‘lov-kontrakt asosida mustaqil tadqiqotchilik shaklida o‘qitish.

Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni (O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bundan mustasno) oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga o‘qishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga o‘qishga fuqarolar bilan teng huquqlarda qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya vizasiga ega bo‘lgan xorijiy investorlar hamda ularning oila a’zolari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga o‘qishga kirishga va ta’lim olishga haqli.

6. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul qilinayotgan magistr yoki mutaxassislik dasturlari bo‘yicha olingan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lishi, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda ilmiy darajaga ega bo‘lganlar mutaxassisligi oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosligi tegishli bo‘lgan fan sohasiga muvofiq bo‘lishi shart. Fan sohalari mos kelmaganda yoki oliy ta’limdan keyingi ta’limda fanning turdosh sohalari bo‘yicha olish rejalashtirilganda talabgorlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — OAK) belgilagan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha imtihonlar topshirishi lozim.

Bakalavriat ta’limi yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi ta’limning turli sohalariga tegishli bo‘lganda, OAK tomonidan belgilangan fanlar bo‘yicha qo‘shimcha imtihonlar topshirish sharti bilan, bakalavriat ta’limining yo‘nalishiga tegishli bo‘lgan ta’lim sohasiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasining belgilangan tartibda tayyorlanishiga va himoya qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

7. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlashni ta’minlash, shuningdek dissertatsiya tadqiqotlarini o‘tkazishda ularga ilmiy va o‘quv-uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish istagidagi talabgorlar Akademiya kengashi qarori bilan ilmiy rahbarlarga, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish istagidagi talabgorlar esa — ilmiy konsultantlarga biriktiriladi.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlanadigan dissertatsiya tadqiqotlari ilmiy konsultantni tayinlanmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

Tanlangan tadqiqot mavzusi asosida barcha tadqiqotchilar Akademiya kengashi qarorlari bilan Akademiyaning tarkibiy bo‘linmasiga biriktiriladi.

8. Akademiyaning fan doktori bir vaqtning o‘zida oltitadan ko‘p bo‘lmagan doktorantlar uchun rahbar va maslahatchi bo‘lishi mumkin.

Ilmiy unvoni bo‘lgan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) bir vaqtning o‘zida uchtadan ko‘p bo‘lmagan izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin. So‘nggi uch yilda izlanuvchilari o‘z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbarlarga Akademiya kengashi xulosasi asosida to‘rttadan ko‘p bo‘lmagan izlanuvchilar biriktirilishi mumkin.

Ilmiy unvoni bo‘lmagan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy rahbar bir vaqtning o‘zida ikkitadan ko‘p bo‘lmagan doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbari bo‘lishi mumkin. So‘nggi uch yilda izlanuvchilari o‘z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbarlarga Akademiya kengashi xulosasi asosida uchtadan ko‘p bo‘lmagan izlanuvchilar biriktirilishi mumkin.

Xorijiy fuqarolarga yoki fuqaroligi bo‘lmagan izlanuvchilarga o‘rnatilgan me’yordan ortiq ilmiy rahbar yoki konsultantlar tayinlanishi mumkin.

9. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutini akkreditatsiya qilish vakolatli davlat organi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash masalalarida Akademiyaning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

## 2-bob. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni tayanch doktorantura va doktorantura shaklida tashkil etish

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilish va oʻqitish tartibini belgilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga oʻqishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni oʻtkazish

3-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha yozma imtihonni oʻtkazish

5-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishi boʻyicha test sinovlarini oʻtkazish

6-§. Akademiyaning "tergov faoliyati" yoʻnalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yoʻnalishlari boʻyicha oʻqishga qabul qilish

3-bob. Oʻquv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yoʻnalishi boʻyicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining "tergov faoliyati" yoʻnalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yoʻllanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga oʻqishga qabul qilish va oʻqitishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni oʻtkazish

11. Tayanch doktorantura va doktoranturaga Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari hisobiga va toʻlov-kontrakt asosida oʻqitish uchun qabul kvotasi (keyingi oʻrinlarda — qabul kvotasi), qoida tariqasida, tegishli oʻquv yili uchun tasdiqlangan oliy taʼlim muassasalariga davlat buyurtmasi asosida magistratura mutaxassisliklariga oʻqishga qabul qilish umumiy parametrlarining 30 foizidan kam boʻlmagan miqdorda belgilanadi.

Ilmiy markaz boshligʻining taqdimnomasiga asosan Akademiya boshligʻi ruxsat bergan taqdirda, Akademiya doktorantlari haftasiga 10 soatdan oshmagan hajmda soatbay tartibidagi pedagogik faoliyat bilan shugʻullanishlari mumkin. Boshqa har qanday mehnat faoliyati taqiqlanadi.

Akademiya doktorantlariga stipendiyasi saqlab qolingan holda 21 kalendar kunidan iborat har yilgi mehnat taʼtillari beriladi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktorantura hamda doktorantura bosqichiga oʻqishga qabul qilish mazkur Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq tashkil etiladi.

Akademiya har yili 1-iyunga qadar Yagona elektron tizim orqali elektron shaklda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ilmiy darajali kadrlarga boʻlgan ehtiyojlar, amaldagi oliy taʼlimdan keyingi taʼlim institutlarining samaradorligi, taʼlim olayotgan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar kontingenti, ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning samarali ishlari, shuningdek, mazkur Nizomda belgilangan bitta ilmiy rahbar va bitta ilmiy konsultantga biriktiriladigan izlanuvchilar sonidan kelib chiqib, keyingi yildan boshlab attestatsiyadan oʻtgan yoʻnalishlar boʻyicha tayanch doktoranturaga va doktoranturaga qabul kvotasi boʻyicha asoslangan takliflar bilan murojaat qiladi.

12. Akademiya tomonidan qabul kvotasi boʻyicha asoslangan takliflarni har yili 10-iyunga qadar Yagona elektron tizim orqali Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish uchun Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuborilishini taʼminlaydi.

13. Akademiya har yili 1-sentabrdan kechikmasdan ommaviy axborot vositalarida qabul kvotalariga muvofiq hujjatlarni qabul qilish muddatlarini, talab qilinadigan hujjatlar, topshiriladigan imtihonlar roʻyxatini va qabul kvotasi miqdorini koʻrsatgan holda tayanch doktorantura va doktoranturada oʻqish uchun talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish toʻgʻrisida eʼlon beradi.

Hujjatlar Akademiya tomonidan 15-sentabrdan 15-oktabrgacha boʻlgan davrda Yagona elektron tizim orqali qabul qilinadi.

14. Tayanch doktoranturaga quyidagilar qabul qilinadi:

yuridik soha boʻyicha bakalavr va magistr diplomi yoki oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi (ixtisoslik boʻyicha) diplomga ega boʻlganlar;

yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin boʻlgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yoʻnalishlar boʻyicha ikkitadan kam boʻlmagan ilmiy ishlar toʻplamlariga kiritilgan maʼruza tezislariga ega boʻlganlar;

ilmiy tadqiqotlar uchun tanlangan mavzu bilan bogʻliq kamida uch yillik ish tajribasi;

chet tilini bilish darajasining milliy yoki tegishli xalqaro sertifikati.

15. Akademiyada boshliq raisligida qabul komissiyasi tuziladi. Qabul komissiyasi aʼzolari boshliq tomonidan tegishli ixtisoslik boʻyicha yetakchi mutaxassislar orasidan tayinlanadi.

Ixtisoslik boʻyicha imtihonlarni topshirishda qabul komissiyasi tarkibida kamida bitta fan doktori yoki professor boʻlishi zarur, komissiyaning qolgan aʼzolari fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari (PhD) boʻlishi mumkin.

16. Tayanch doktoranturada oʻqishga talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

ariza;

qisqacha biografik maʼlumotnoma;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);

oliy taʼlim muassasasi bakalavr va magistraturasi diplomi, oliy maʼlumot (mutaxassislik dasturlari boʻyicha) toʻgʻrisidagi diplom nusxasi;

milliy yoki tegishli xalqaro sertifikatning nusxasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar roʻyxati, shuningdek ularning nusxalari.

17. Doktoranturaga quyidagilarga ega boʻlganlar qabul qilinadi:

yuridik fanlar nomzodi yoki yuridik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

yuridik fanlar nomzodi yoki yuridik fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan soʻng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin boʻlgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Akademiya bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish va dastlabki tanlovni o‘tkazish

3-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus psixologik tanlov

4-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha yozma imtihonni o‘tkazish

5-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish

6-§. Akademiyaning “tergov faoliyati” yo‘nalishidan tashqari yurisprudensiyaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilish

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish

4-bob. Tergov faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq ishlab berishini tashkil etish

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatining “tergov faoliyati” yo‘nalishiga qabul qilishni tashkil etish SXEMASI

4-ILOVA
Akademiya bitiruvchisiga berilgan yo‘llanmalar va ularning xizmatga joylashganini hisobga olish JURNALI

2-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Hujjatlarni qabul qilish

3-bob. Tanlovni tashkil etish

4-bob. Tanlovni o‘tkazish

amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo‘lish.

18. Doktoranturada o‘qishga talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

ariza;

qisqacha biografik ma’lumotnoma;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki ID-karta) nusxasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;

oliy ma’lumot, yuridik fanlar nomzodi yoxud yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi;

tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati, shuningdek ularning nusxalari.

19. Chet tilini bilish to‘g‘risidagi milliy yoki tegishli xalqaro sertifikat quyidagi toifalarda qabul qilinadi:

IELTS — o‘rtacha balli kamida 5,5;

TOEFL (RVT) — 567 balldan kam bo‘lmagan;

TOEFL (iBT) — 87 balldan kam bo‘lmagan;

CEFR — V2 darajadan past bo‘lmagan;

chet tilida malaka imtihonini topshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma — kamida 60 ball, berilgan kunidan boshlab besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatda amal qiladi.

Kirish imtihonlari savollari Akademiyaning tarkibiy tarmoqlari tomonidan tuziladi va Akademiya boshlig‘ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

